

1-dars: TASVIRIY SAN'AT NIMA?

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarga tasviriy san'at fannining paydo bo'lishi haqida tushuncha berish;
- dars jarayonida tasviriy san'at ifoda vositalari bilan ishlash qoidalarini shakllantirish;
- tasviriy san'at fanining hayot bilan bog'liqligini ko'rsatish.

Kerakli materiallar:

darslik, dars davomida ishlatish uchun kerakli ko'rgazma materiallari.

DARSNING TEKNOLOGIK XARITASI

1. Tashkiliy qism (5 minut)

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi, davomatni tekshiradi.

2. Kirish qismi (5 minut)

O'qituvchi o'quvchilarni darslik, shartli belgilarni va zaruriy materiallarni ro'yxatiga tanishtiradi.

3. Amaliy ish (25 minut)

1. *Nima uchun "tasviriy san'at" deymiz? (Tasvirlamoq so'zidan kelib chiqadi).*

2. *Bu ibora nimani anglatadi? (Borliqdagi narsalarni tasvirlash qobiliyati).*

Tasvirlarni ko'rib chiqing. Berilgan rasmda nima tasvirlangan?

O'quvchilar tasvirlarni ko'rib chiqadilar. O'qituvchi suhbat olib boradi. Qadimgi odamlar ishlagan devoriy rasmlar (o'tin ko'miri bilan chizilgan tasvirlar), papyrus qog'ozi haqida (papyrus o'simligidan tayyorlangan yozish yoki rasm chizish uchun mo'ljallangan) tushuntirib o'tishi mumkin.

O'qituvchi o'quvchilardan uylaridagi narsalar va buyumlarga chizilgan tasvirlar, qanday materiallardan tayyorlanganligi haqida so'raydi.

Bu bilan birga o'quvchini o'rabi turgan atrofdagi turli xil narsalarning tasviriy san'at faniga tegishli ekanligini tushuntirib beriladi.

O'qituvchi: O'quvchilar siz qaysi tasvir ishlash vositasida chizishni o'rganmoqchisiz? O'quvchilar dars boshida aytib o'tilgan tasviriy san'at ifoda vositasini (yani, fanga doir o'quv quollardan) tanlaydilar.

Shundan so'ng o'qituvchi tasviriy san'at darslarida xavfsizlik qoidalarga amal qilish kerakligi haqida tushuntiradi.

Darsda xavfsizlik qoidalari

1. Amaliy mashg'ulot vaqtida ish qurollaridan foydalanganda chalg'imaslik, begona, keraksiz narsalardan foydalanmaslik va jarohat olmaslik.

2. Faqat o'qituvchi topshiriqlarini bajarish.

3. Ish joyida tozalik va tartibni saqlash.

4. Amaliy mashg'ulot vaqtida keskin harakatlar qilmaslik.

5. Intizomni saqlash.

Mashg'ulot davomida bo'yoqlar va o'quv qurollardan foydalanish gigiyena qoidalari:

1. Dars boshlanishidan oldin ish joyini tayyorlash: qalamlar, bo'yoqlar, qog'oz stollarga qo'yiladi. Bo'yoqlar uchun suv idishlarga solinadi.

2. Bo'yoqlarni aralashtirish uchun palitra, mo'yqalamni artib olish uchun latta va qo'llar uchun nam salfetkalar kerak.

3. Kir suvni to'kish uchun kattaroq idish bo'lishi lozim.

4. Rasm chizishda o'quvchi erkin va to'g'ri o'tirishi, rasmni doimo namuna bilan taqqoslashi lozim.

5. Bo'yoqlar, mo'yqalamlar va qalamlar bilan ehtiyojkorlik bilan ishlash, yuzingizga yoki boshqalarning yuziga qaratish mumkin emas.

6. Bo'yoqlarni og'izga solish mumkin emas.

7. Rasm chizishda qog'oz harakatlanib ketmasligi uchun molbert taxtasiga knopka yoki skotch bilan mustahkamlanadi.

8. Rasm chizish qurollari alohida joyda saqlanishi kerak.

9. Tayyor rasmlar papkalarda, hajmli yasalgan tasvirlar maxsus javonlarda saqlanishi kerak.

10. Ish tugaganidan keyin mo'yqalamlarni yuvib, quritib, boshqa ish qurollari bilan yig'ishtirib olib qo'yish kerak.

11. Dars oxirida ish stoli artib, tozalab olinadi.

12. Dars davomida qo'llar va ish joyining tozaligiga e'tibor berish lozim.

O'qituvchi mavzuni mustahkamlash maqsadida qiziqarli metoddan foydalanishi mumkin: masalan, "Tasviriy san'at" so'ziga tegishli va mos bo'lgan iboralarni topish.

4. Darsni yakunlash. Refleksiya (5 minut)

Dars qarsak chalish usulida yakunlanadi: o'quvchilar berilgan vazifani bajarib tugatgan bo'lalar, qattiq qarsak chaladilar. Aksincha, vazifani bajarishga ulgurmaganlar, past ovozda qarsak chaladilar.

Kutilayotgan natijalar:

- Tasviriy san'at qanday paydo bo'lganini tushunib oladilar;
- Tasviriy san'at darslarida o'quv qurollari bilan ishlash texnika va qoidalarini o'rganadilar va qo'llay oladilar;
- Tasviriy san'at o'quv predmetini hayot bilan bog'lab ko'ra oladilar.